

# IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR DETERMINATSIYASI TIZIMI VA UNING MOHIYATI

Abduvaitova Ra'no Sharafiddin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo'nalishi talabasi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, siyosiy tizimdagи jarayonlar, ularning bosqich, darajalari va bularning bugungi jamiyatimizga ta'sirini ko'rish mumkin. Siyosiy jarayon jamiyatning ijtimoiy va siyosiy strukturalarini, o'zaro aloqalarini, ya'ni siyosat tekisligi bo'yicha asosiy sub'yecktlarning funksiyasi va roli, siyosiy hokimiyatning manbalarini tavsiflab beradi.

**Kalit so'zlar:** siyosiy tizim, siyosiy jarayon, ijtimoiylashuv, ochiq va yopiq siyosiy jarayonlar, determinatsiya

**Аннотация:** В этой статье вы можете увидеть процессы в политической системе, их этапы, уровни и их влияние на наше общество сегодня. Политический процесс описывает социальные и политические структуры и отношения общества, то есть функции и роли основных субъектов в политической сфере, а также источники политической власти.

**Ключевые слова:** политическая система, политический процесс, социализация. открытые и закрытые политические процессы, определение

**Annotation:** This article examines the processes in the political system, their stages, levels, and their impact on our society today. The political process describes the social and political structures of society, their interrelationships, that is, the functions and roles of the main actors in the political sphere, and the sources of political power.

**Keywords:** political system, political process, socialization. open and closed political processes, determination.

«Jarayon» atamasi (lotin tilida processus – harakatlanish) odatda ma'lum bir harakatni tavsiflab berib, o'z yo'nalishiga ega bo'lgan qandaydir yurish, harakat

tartibini, holatlarning ketma – ketlikdagi o‘zgarishlari tartibini, bosqichlarini, evolyusiyasini, qandaydir natijaga erishish uchun ketma – ketlikdagi harakatlar umumiyligini belgilab beradi.

Siyosiy jarayon ketma – ketlikdagi, ichki o‘zaro bog‘langan siyosiy hodisalar va voqealar zanjirini ifodalab beradi, shuningdek jamiyatda siyosiy hokimiyatga erishish, uni saqlab qolish va mustahkamlashga qaratilgan turli xil siyosat sub’yektlarining ketma – ketlikdagi ta’sirlari birligini anglatadi. Siyosiy jarayon – bu ijtimoiy jamoa, ommaviy-siyosiy tashkilotlar va guruhlar, ma’lum bir siyosiy maqsadlarga ega bo‘lgan alohida shaxslar faoliyatining bir butunlikdagi ketma – ketliklari yig‘indisi hisoblanib, tor ma’noda – ma’lum bir vaqt oralig‘ida siyosiy yechimlarga kelish bo‘yicha ijtimoiy va institutsional siyosiy sub’yektlarning maqsadga yo‘naltirilgan va o‘zaro bog‘liqlikdagi faoliyati hisoblanadi. Siyosiy jarayon siyosiy hayotda umumiy holatda funksional tavsiflash ko‘rinishida yuzaga chiqib, hokimiyat sub’yektlarining o‘ziga xos spesifik roli va funksiyalari bajarilishini belgilab beradi. Bu holat siyosiy sohada o‘z huquqlari va alohida imtiyozlarini amalga oshirish yo‘nalishida sub’yektlar, hokimiyat manbalari va institutlar faoliyatining birligini o‘zida aks ettiradi. Siyosiy jarayon davomida turli xil siyosiy su’yektlar va omillar o‘zaro ta’sirlashadi, natijada esa jamiyatning siyosiy sohasida o‘zgarishlar va qayta shakllanishlar amalga oshadi<sup>1</sup>.

Siyosiy jarayonning mavjudlik holati bo‘yicha uchta rejim o‘zaro farqlanadi:

1. Harakat qilish tuzumi fuqarolar va hokimiyat institutlarining o‘zaro murakkab aloqalari bo‘yicha siyosiy tizim doirasidan chetga chiqmaydi. Ushbu holatda siyosiy jarayon hokimiyat strukturalari va mexanizmlarining faqat elita va elektorat o‘rtasidagi eskirgan, takrorlanuvchi munosabatlarini aks ettiradi.

2. Rivojlanish tuzumi. Bu yerda hokimiyat strukturalari va mexanizmlari davlat siyosati doirasida yangi rivojlanish harakatlari bosqichiga ko‘tariladi, bu holat bevosita davr talabiga adekvat javob tarzida yuzaga keladi. Bu ko‘rinishdagi siyosiy o‘zgarishlar ritmi shuni anglatadiki, bunda boshqaruvchi doiralar mamlakat ichida va dunyo maydonlari miqyosida o‘zgaruvchan siyosiy kuchlar munosabatlari holatida va

<sup>1</sup> Boulding, K. (1981). *Evolving Economic Systems*. Harper & Row

shuningdek ijtimoiy strukturalarda amalga oshuvchi o‘zgarishlarga mos ravishda boshqaruv usullari va maqsadlarini amalga oshirishni ta’minlaydilar.

3. Tanazzul tuzumi, siyosiy bir butunlikning parchalanishi yoki «siyosatning regressiv metamorfozi» tuzumi. Ushbu holatda siyosiy jarayon yo‘nalish dinamikasi siyosiy tizimning mavjudligi bir butunligi sharoitlariga va me’yorlariga nisbatan salbiy ta’sirga ega hisoblanadi. Natijada qabul qilingan tuzum o‘zining boshqaruvchanlik xususiyatini yo‘qotadi, tuzumning o‘zi esa – o‘zining qonuniylik xususiyatini yo‘qotadi. Ushbu ko‘rinishdagi siyosiy jarayonlarga klassik misol sifatida sobiq sosialistik mamlakatlar taqdirini ko‘rsatib o‘tish mumkin, bunda boshqaruvchi doiralarning o‘zлari o‘sha davrda amalga osha boshlagan ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy masalalarga javob berish, adekvat chora-tadbirlarni amalga oshirishga qodir bo‘lmay qolishgan. Siyosiy jarayonning mavjudligini tavsiflab beruvchi ushbu uchala tuzum o‘zining ommaviy ehtiyojlarini qondirish uchun siyosiy hokimiyat institatlari va turli xil boshqa kanallardan foydalanuvchi ko‘plab guruhlar va ularga tegishli bo‘lgan fuqorolarning o‘zaro doimiy munosabatlari bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, xohlagan jamiyatda ushbu ko‘rinishda yoki boshqa yo‘l bilan ma’lum bir aniqlikdagi davlat siyosati vujudga kelishi kuzatilishini hisobga olgan holda, turli xil guruhlarning ko‘p xildagi talablarini o‘zida aks ettiruvchi siyosiy jarayonni jamiyatda guruhlar o‘rtasidagi hokimiyatga bo‘lgan irodasini shakllantirish va amalga oshirishda siyosiy sub’yektlarning institutlashtirilgan va institutlashtirilmagan harakatlari yig‘indisi sifatida qarash mumkin.<sup>2</sup>

Determinatsiya tizimi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar sababini aniqlashga qaratilgan yondashuvni anglatadi. Bu tizim, o‘z navbatida, jarayonning natijalarini oldindan aytish yoki pragnoz qilishga yordam beradi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning determinatsiyasi quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

1-Ijtimoiy omillar: Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tuzilmalari, qadriyatlar va an’analari. Ijtimoiy institutlar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlar jarayonlarni shakllantiradi.

<sup>2</sup> Siyosiy sosiologiya /uslubiy qo‘llanma/ Latipova N.M, Tayjanova N.S.-T.-2013

2-Siyosiy omillar: Hukumatning siyosiy qarorlari, qonunlar, siyosiy partiyalar va davlat strukturalarining faoliyati jarayonlarni belgilaydi.

3-Iqtisodiy omillar: Resurslar, ishlab chiqarish tizimi, bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori va iqtisodiy siyosatning ahamiyati. Iqtisodiy sharoitlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

4-Psixologik omillar: Jamiyat a'zolarining psixologik holati, psixologik qabul qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlari jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi<sup>3</sup>.

Siyosiy jarayonning mavjudligi bosqichlari va fazalari:

1. Boshqaruv yechimlarini qabul qiluvchi institutlar guruhlarining siyosiy qiziqishlarini aks ettiruvchi bosqich.

2. Siyosiy irodani shakllantirish va yechimlar qabul qilish bosqichi. Bu yerda siyosiy jarayon «spontan strategiya bo'yicha anglangan, aniq bir yechimlarga olib keluvchi aniq usullar, bajariluvchi ishlar ketma – ketligi» birligidan tashkil topgan bo'lib, shuningdek uning tarkibiga qabul qiligan yechimlar texnikasi, tashkiliy kontekst, qabul qilingan yechimlarning ehtimollikdagi natijalari kabilar ham kiritiladi.

3. Siyosiy irodani amalga oshirish bosqichi boshqaruv yechimlarining yaqqol aks etgan shakli sifatida siyosiy jarayonning tarkibiy qismini tashkil qiladi, bu yerda eng avvalo hokimiyatga erishish qabul qilingan yechimlarning adekvat holati va maqsadlarning to'g'ri belgilanganligi bilan ifodalanib, ularga ommaviy tarzda fuqorolar hulq-atvorining bo'ysindirilishi amalga oshiriladi. Siyosiy jarayonning ushbu bosqichida asosiy masala siyosiy boshqaruv usullarini tanlash hisoblanadi: ya'ni, zo'ravonlikka asoslangan yoki zo'ravonlikka asoslanmagan, g'oyaviy va g'oyaviy bo'lмаган.

Siyosiy jarayonning mustahkam tarmog'i sifatida tashkillashgan hokimiyat strukturasi ko'rsatilib, bunda aholining u yoki bu hajmdagi faolligi talab qilinadi, shuningdek ushbu holat fuqorolarning siyosiy yo'naltirilishi vositalari yig'indisi va boshqaruvning ustunlik qiluvchi usullarini talab qiladi. Siyosiy tashkillanish xususiyatiga bog'liq holatda zvenolarning funksiyalari ko'rinishi o'zgarishi amalga

<sup>3</sup> Giddens, A. (2006). *Sociology* (6th ed.). Polity Press

oshadi, bunda boshqaruv elitasi tarkibida kadrlar o‘zgartirilishi tezkor tarzda amalga oshiriladi va yetakchilar almashinishi kuzatiladi, bu holat talab qilingan yangi institutlarni tashkil qilish va siyosatning ijtimoiy sohaga ta’sir xususiyatlarini ta’minlash maqsadlarida bajariladi.

Hokimiyatning qayta o‘zgartirilishi xususiyatlari bo‘yicha siyosiy jarayonlar inqilobiy va evolyusion turlarga bo‘linadi.

Siyosiy jarayonlarning evolyusion turi yig‘ilib boruvchi qarama – qarshiliklar va ziddiyatlarning asta – sekin hal qilinishi, turli xil siyosiy sub’yektlarning funksiyalari va roli ajratilishi, qabul qilingan yechimlar mexanizmlarining barqaror holatda shakllantirilishi, elita va elektorat o‘rtasidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyat, ularning holatiga bog‘liq bir – birini nazorat qilish, hokimiyatning qonuniy tarzda amalga oshirilishi, yagona ijtimoiy madaniy qadriyatlar va boshqaruvchi hamda boshqariluvchi o‘rtasidagi mo‘ljalga olish, konsensus va konstruktiv muholifat mavjudligi, siyosiy hayotning o‘z – o‘zini tashkillashtirishi va o‘z-o‘zini boshqarishi kabilalar mavjudligi bilan tavsiflanadi<sup>4</sup>.

Ochiq siyosiy jarayonda guruhlar va fuqorolarning siyosiy qiziqishlari elektorat tomonidan qat’iy tartibda ma’qul ko‘riladi, ommaning fikri ostida siyosiy kurs belgilanadi, jamiyatning rivojlanish dasturlari va vositalari belgilanadi, shuningdek bunda qabul qilingan siyosiy yechimlar turli xil faza va bosqichlarda omma uchun ochiq holatda bo‘lishi ta’milanadi, elitaning o‘zgarishlari ochiq holatda amalga oshiriladi.

Yopiq siyosiy jarayonda fuqorolar rasmiy hokimiyatga arz qilishmasdan, balki jamiyat strukturalari tomonidan tan olinmagan, noqonuniy hokimiyatga arz qilish amalga oshiriladi. Boshqaruv axborotlari ushbu siyosiy makonda mavjud bo‘lgan sub’yektlarning ommaviy fikrlariga asoslanilmaydi, boshqaruv elitasi ustidan nazorat butunlay mavjud emasligi qayd qilinadi.

Alohiba mamlakatlar ichidagi siyosiy jarayonlarga tashqi omillar, butunjahon siyosiy va xo‘jalik munosabatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va o‘z navbatida ushbu

<sup>4</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/Esonboyev+Behro%E2%80%99z+Zohid+o%E2%80%99g%E2%80%99li.pdf

holatga bog‘liq ravishda iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, axborot, harbiy-strategik va boshqa vaziyatlar halqaro miqyosdagi mavjudlik ko‘rinishida tavsiflanadi.

Bunda integrasion jarayonlar kuchayishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning internasionallashishi, butun dunyoda rivojlanayotgan siyosiy harakatlarning o‘zaro munosabatlari va o‘zaro aloqalari kuzatilib, bu esa halqlar va davlatlarning asl maqsadlari, qiziqishlari umumiyligini ifodalab beradi. Siyosiy jarayonlarning rivojlanishida ommaviy siyosatning o‘sib boruvchi roli ommaga ta’sir ko‘rsatuvchi qudratli omil va qurol sifatida yuzaga chiqib, barcha ijtimoiy harakatlarning tizim tashkil qiluvchi zvenosi, shuningdek siyosatdagi eng ahamiyatga bo‘lgan element – siyosiy hokimiyat sifatida namoyon bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1- Boulding, K. (1981). *Evolving Economic Systems*. Harper & Row
- 2- Siyosiy sosiologiya /uslubiy qo‘llanma/ Latipova N.M, Tayjanova N.S.-T.-2013
- 3- Giddens, A. (2006). *Sociology* (6th ed.). Polity Press
- 4- file:///C:/Users/user/Downloads/Esonboyev+Behro%E2%80%99z+Zohid+o%E2%80%99g%E2%80%99li.pdf
- 5- Smith, A. (1776). *The Wealth of Nations*.